# 10-Mavzu: Dunyo aholisi diniy tarkibi

**Reja:**

1. **Dinlar va diniy tarkib haqida tushuncha**
2. **Dunyo dinlari**
3. **Mahalliy dinlar**

**Din xudoga farishtalarga,** xudo nomidan yuborilgan payg‘ambarlarga va muqaddas xisoblangan kitoblarga ishonishdir. Payg‘ambarimiz aholisi juda ko‘p dinlarga e’tiqod qiladilar. Hozirgi paytda qabilalrida, Amazonka xavzosida yashovchi xindular ijtimoiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan. Ayrim xalqlar allaqachonlar tugallab ketgan ibtidoiy din shakllari (Totemizm, magiya, fetimizm, animism) hamon saqlanib qolgan. Shuningdek ba’zi halqlar e’tiqod qiladigan mahalliy va milliy ahamiyatga ega bo‘lgan dinlar (mudomizm, zardushtiylik, brohmonizm, sinvinizm kabilar) xam mavjud. Planetamiz aholisining ko‘p, chihilik qismi( ko‘plab halqlar, bir necha mamlakatlar aholisi) E’tiqod qiladigan asosiy dinlar 3 ta: nasroniylik, islom va budda dinlari. Odatta bu dinlarni “dunyo dinlari “ deb atashadi.

**Taxminiy** hisobga kura nasroniylik diniga 1 milliyardan ortiq kishi e’tiqod qilishali. Nasroniylik dini eng keng tarqalgan dindir. Nasroniylik dini eramizning 1-asrining 2-yarimida Rim imperiyasining sharqida paydo bulgan. U o‘rta asr boshlaridayoq YEvropaning barcha xalqlari diniga aylangan. Nasroniylik dinini dunyoning boshqa hududlariga kirib borishi ruproq buyuk geografik kashfiyotlar davriga to‘g‘ri keladi. Nasroniylik bir necha tarmoqlarga bulinadi.

XI asr urtalarida nasroniylikning 2 mazhabi katolik va provoslavlar vujudga keldi. Katolik mazhabiga Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya, GFRning janubiy rayonlari katolik cherkovi ta’sirida, dinchi polyaklar, chexlar, slovyanlar, vengrlar katolikka e’tiqod qiladi. AQSh aholisining 1\4 qismi katoliklar, Lotin Amerikasining ko‘pchilik qismi xam katolik diniga e’tiqod qiladi.

Nasroniylikning provoslav masxabiga, Gresiya aholisi, bolgarlar, ruminlar, ruslar, ukrainlar, beloruslar e’tiqod qilishadi. Provoslavlik mazhabiga yaqin bulgan yo‘nalish YEfiopiyada xukumronlik qiladi.

XVI asrdagi feodalizm islohati ta’sirida nasroniylikda yangi masxab vujudga keldi. Lyuter Martin boshchiligida reforma o‘tkazildi va Nasroniylikning 3 asosiy tarmog‘i protestantlik paydo bo‘ldi. Nasroniylikning Rim paposi tan olmaydigan protestantlik moznida Skanvinovlya mamlakatlarida, Niderlandiya va nemslar orasida tarqalgan. Buyuk britanyalikdan otilikan va boptistlik pom promestoitlikning turlaridir. Nasroniylik dini butun Afrika qia’sida xam asosiy din xisoblanadi. AQSh va Kanada asosan promestoitlik keng tarqalgan Promestoitlik shuningdek Avstraliya, Tinch okeani orollari va janubiy Afrikaning kelgindi aholisi o‘rtasida xam keng tarqalgan. Nasroniylik Hindistonda (3% aholisi) Yaponiya, janubiy-sharqiy osiyo, Afrika aholisining ayrim guruhlari asosida ham uchraydi.

**Dunyoda 2 chi** o‘rinda yosh islom dini turadi. Bu din VI asrning oxiri VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Islom dini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan islom diniga e’tiqod qiluvchilar nisbatan yaqin umumiy hududda joylashgan. 1 milyardga yaqin kishi e’tiqod qiladi. Islom dini shimoly, G‘arbiy, Sharqiy Afrikada, Arab mamlakatlarida, Kichik Osiyoda, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarida hukmron. Kipr aholisinining bir qismi musulmonlardir. Hindiston aholisining 9 % musulmonlar, ilgari bu mamlakatda musulmonlar ko‘p bo‘lgan.Lekin ularning ko‘p qismi Pokiston va Bangladeshga ko‘chib ketishgan. Islom dini Indoneziyada asosiy din hisoblanadi. Bu dinga shuningdek “Flippin” davlatining janubiy qismida yashovchi xalqlar G‘arbiy Xitoydan “Uyg‘ur dungonlar” ham e’tiqod qilishadi. YEvropada istambul va uning atrofidagi turklar, albanlar, boskiyaliklar, bolgarlarning bir qismi, lo‘lilarning bir qismi musulmon hisoblanadi.

Islom diniga e’tiqod qiliuvchilar musulmonlardir. Islom dinining ham uchta yo‘nalishi bo‘lib, Ular quyidagilar:

1) Su’nniylik  2) Shiyalik,  3) Ibodiylik.

Su’nniylikning 4 mazhabi mavjud:

a) Firqi Honafiy-Bu mashabga Imom Abu Xanifa “Rozialloxu-anxu” shogirtlari, Imom Abu Yusuf, Imom Muhammad, Zufar va boshqalar bilan asos solgan.

b) Firqi Molikiy-Imom Malik ibn Anos

v) Firqi Shofiy-bunga Imom Muhammad Ibn idris shofiy “rozialloxu-anxu” asos sogan.

g) Firqi Xonbaliy-bu masxobga Imom Ahmad ibn Xanbal “rozialloxu-anxu” asos slogan.

“Firqi”-quron va hukumlaridan olingan qonundir.

**Dunyo dinlari** orasida e’tiqod qiluvchi aholi soni bo‘yicha ham, geografik tarqalish hududi jihatidan ham eng kichigi-budda dini (buddizm) dir. Bu dinga tahminan 300 ming kishi e’tiqod qiladi. Tarihiy nuqtai nazardan budda eng qadimgi dunyo dinidir. U eramizdan avvalgi VI-V asrlarda shimiloy Hindistonda vujudga kelgan. Hozir bu dinga Hindiston aholisining bir qismi, Neapal, Shiri-Lanka aholisi, Xindi-Xitoy halqlarining bir qismi e’tiqod qilishadi. Budda dini shuningdek Xitoyning g‘arbiy rayonlarida va MDHda tarqalgan. Asosiy uchta “dunyo dinlari”ning geografik tarqalishi ana shunday. Ammo bu uch dinga planetamiz aholisining taxminan yarmi e’tiqod qilishadi.

Ma’lum bir millat yoki ma’lum bir hudud aholisi e’tiqod qiluvchi dinlar (aosan bir mamlakat doirasidagi) milliy dinlar deb yuritiladi. E’tiqod qiluvchi aholining soni jihotdan milliy dinlar orasida eng yiriklari konfutsiylik,xidouizm, sintoizm, lomachilik va boshqalar.

Misol uchun: Konfutsiylik asosan Xitoylar o‘rtasida keng tarqalgan. “Xinduizm” esa Hindiston aholisining eng asosiy dinidir.

Yaponiyada-Sintoizm, Xitoyda-Konfutsiylik va daotsizm dinlariga MDH hududdosh “qol moqlar”, “buryatlar”, “tuvalaliklar” e’tiqod qiladilar. “Lamoizm” dini Sibr va Uzoq sharq, Mongoliyada tarqalgan.

1) Rimdagi-kotolik cherkovi.

2) YErusalikdagi-Nasroniylar, musulmonlar, iudoistlar cherkovi.

3) Makka va Madina-Musulmonlar uchun.

4) Varaqasi va Tong-Xindiustlar uchun.

5) Lummina-Buddistlar uchun.

6) Pekin-Gaochilar uchun.

Ma’lumki, din jamiyat hayotida turmushida juda katta rol o‘ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganligi dramasi, aholining ta’limiy darajasi katta ahamiyat kasb etmaydi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to‘g‘ri baholash, dunyoda bo‘lib o‘tayotgan miqyosini voqea va hodisalarning ko‘pchiligini to‘g‘ri tushunish va anglashga imkon beradi. YEvropada xristianlik dinini barcha shakllari keng tarqalgan. Katolik dini asosan qit’aning janubida, qisman g‘arbi va markazida; provaslavlik sharqi va janubiy sharqida Sobiq ittifoq mamlakatlari provaslavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa, islom dini katta rol o‘ynaydi. Islomning sunniylik yo‘nalishi Indoneziya dunyoda eng yirik musulmon mamlakatlaridir. Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg‘oniston, Janubiy-G‘arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlari asosiy o‘rin egallaydi. Islomning shialik yo‘nalishi Eron, Ozarbayjon, qisman Iroq va Yamanda asosiy din sifatida tan olgan islom diniga e’tiqod qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filippin, Kombadja, Tailand, I’yenka, Kipr, Shri- Lanka mamlakatlarida mavjud. Quyidagi 6-jadvalda dunyoda asosiy dinlar tarqalgan davlat va mintaqalar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari buddizm va lamaizm keng tarqalgan. Induizmga Hindiston va Nepal aholisining ko‘pchiligi e’tiqod qiladi. Konfutsiyalik va daosizm dinlari Xitoyning asosiy dinlari hisoblanadi. Sintoizm Yaponiyada tarqalgan. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Malayziya va boshqa mamlakatlar ham xristian diniga e’tiqod qiluvchilar bor. Afrikaning shimoliy g‘arbi va sharqida joylashgan ko‘pchilik mamlakatlarda islomning sunniylik yo‘nalishi hukmron. Efiopiya, JAR va boshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim rol o‘ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrika aholisining asosiy qismi mahalliy dinlarga e’tiqod qiladilar.

Shimoliy Amerikada xristianlikning ikki shakli katolik va protestantlik hukmron. AQShda protestantlar Kanadada katoliklar ko‘proq. Markaziy Amerikada aholining aksariyati katolikka e’tiqod qiladi. Xuddi shunday Janubiy Amerikada ham katolik dini hukmronlik qiladi. Umuman olganda, Amerika qit’asiga barcha katoliklarning yarmidan ko‘pi to‘g‘ri keladi. Amerikada islom diniga e’tiqod qiluvchilar AQSh aholisining ma’lum qismi hamda Karib dengizi havzasidagi ba’zi bir orollar aholisining ichida mavjud. Avstraliya va Okeaniyada katolik dini keng tarqalgan. Keyingi yillarda halqaro munosabat siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkurada islom dinining o‘rni kengaymoqda va ahamiyati oshmoqda.

Rim papasi rezidensiyasini an’anaga ko‘ra, shveysariyaliklar qo‘riqlaydi. Shveysariyalik qo‘riqchilar kostyumlari 1505 yildan keyingi davrda o‘zgarmagan. Bu liboslarni o‘z davrida Mikelandjelo o‘ylab topgan. Papaning ilgari rezidensiyasi Avinonda bo‘lgan va 1377 yilda hozirgi Vatikanga ko‘chirilgan. Vatikan davlati 1925 yilda paydo bo‘lib, diktator Mussolini bu yerlarni cherkovga sovg‘a qilgan.

**6-jadval.**

**Dinlar geografiyasining asosiy ko‘rsatkichlari**.

| Din | E’tiqod qiluvchilar-ning soni (mln. kishi) | Tarqalgan mintaqalari va mamlakatlari |
|---|---|---|
| Xristianlik shu jumladan: | 1259 dan ortiq | Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstraliya, Belgiya, Irlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chyexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, AQSh, Xorvatiya, Kanada, Kipr, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy. |
| Katolik | 800 | Turli mintaqalarda.. |

| | | |
|---|---|---|
| Protestantlik | 350 | Shimoliy YEvropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shvesariya, Latviya, Estoniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy. |
| Provaslavlik | 100 | Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldava, Gruziya, Bamariya, Ruminiya, Serbiya va Meriogoriya federatsiyasi. |
| Islom | 1000 dan ortiq | Albaniya, Bosniya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA, Misr, Eron, Iroq, Pokiston, Afg‘oniston, Tojikiston, Ozarbayjon, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Malayziya. |

Islom dini – dunyoda e’tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. VII asrda arablar, so‘ngra Janubiy va G‘arbiy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, ikkita yirik mazhabga ajratiladi, ya’ni sun’iylik hamda shia mazhablari. Dunyo miqyosida e’tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra uchinchi o‘rinni «buddizm» egallaydi. Biroq, «buddizm» barcha dinlar ichida eng qadimiysi bo‘lib, eramizga qadar IV asrda paydo bo‘lgan.

Uchta yirik dinlardan tashqari dunyo miqyosida kengroq tarqalgan dinlar ham mavjud. Ular induizm (Hindiston), konfutsiylik va daotsizm (Xitoy), sintoizm (Yaponiya) va iudaizm (Yahudiylar) kabilardir (6-jadval).

## TAYANCH IBORALAR

Mudomizm, zardushtiylik, brohmonizm, sinvinizm, katoliklar, nasroniylik, islom dini, su’nniylik, shiyalik, dunyo dinlari

## Nazorat va mulohaza uchun savollar:

1. Din nima?
2. E’tiqod qiluvchillar soniga ko’rsa qaysi din birinchi o’rinda?
3. Xristian dini mazhablari va tarqalishi?
4. Islom dini qanday mazhablarga bo’linadi va tarqalishi?

5. Mahalliy dinlarga qaysi dinlar kiradi?

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

### Asosiy adabiyotlar


1. Anoxin A.A., Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii: Uchebnoe posobie. – SPb. Izd-vo SPbGU, 2013. – 307 s.
2. Bo‘rieva M.R., Tojieva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.


### Qo‘shimcha adabiyotlar


3. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O’quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
4. Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana. – T., 2009.
5. Bo‘rieva M.R., Tojieva Z.N. Aholi geografiyasi. Ma’ruzalar matni. – T., 2000.
6. Bo‘rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
7. Bo‘rieva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
8. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o‘quv qo‘llanma). – T., 2006.
9. Simagin Yu.A. Territorialnaya organizatsiya naseleniya. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i K”, 2004. – 244 s.
10. Soliev A.S., Bo‘rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.
11. Tojieva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.


### Elktron manbalar:


1. http://www.demoscope.ru.
2. http://stat.uz.
3. http://ziyo.net